

**YANGI TAHRIRDAGI MEHNAT KODEKSIDA  
MEHNAT SHARTNOMASI**

**Qudratova Navbahor Qudrat qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Mehnat va ijtimoiy munosabatlар akademiyasining  
yurisprudensiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 14.01.2025

Revised: 15.01.2025

Accepted: 16.01.2025

Mazkur maqolada 2022-yilning 28-oktyabr kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi mehnat kodeksiga asosan mehnat shartnomasi tushunchasi va uning muddatlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, kodeksning 121-moddasi ham xalqaro tajribalar asosida sharhlangan.

**KALIT SO’ZLAR:**

*mehnat, kodeks,  
o‘zgarishlar, xodim,  
qonun, mehnat  
shartnomasi, modda, ish  
beruvchi, muddat.*

**KIRISH.** Davlat iqtisodiyotining rivojlanishida qonunlarning o‘rnini beqiyos. O‘zbekistonda ham tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida deyarli barcha sohalarda qonunchilik takomillashtirib borildi. Soliq, bojxona, bank va tadbirkorlar o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratildi. Nazorat qiluvchi organlarning tadbirkorlar faoliyatiga behuda aralashishiga chek qo‘yildi. Biroq, tanganing ikkinchi tomoni bo‘lgani kabi davlat va xususiy sektorda mehnat qilib kelayotgan millionlab insonlarning huquqlarini ta’minlamasdan, ularga adolatli mehnat sharoitlarini yaratib bermasdan iqtisodiyotni rivojlantirishga urinishlar samarasiz kechishi mumkin edi. 1995- yilda qabul qilingan va ayni paytda amalda bo‘lib turgan Mehnat kodeksi yillar mobaynida ayrim o‘zgarisharga uchragan bo‘lsa-da, shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar davri talablariga javob berishi qiyin bo‘lib qoldi. Shuni inobatga olgan holda O‘zbekiston mehnat qonunchiligi tubdan o‘zgartirildi.

2022-yil 28-oktabr kuni «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘RQ-798 sonli Qonun qabul qilindi. Amaldagi Mehnat kodeksi 2 ta qism, 15 bob va 294 ta moddadan iborat bo‘lsa, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi umumiy va maxsus qismlar, 7 bo‘lim, 34 bob va 581 moddadan iborat. Ko‘rinib turibdiki, yangi tahrirdagi kodeks amaldagisidan hajm jihatidan deyarli ikki baravar katta. Tabiiyki, yangi kodeksda yangiliklar ham shu qadar bisyor.

Biz esa mazkur maqolada yangi tahrirdagi mehnat kodeksining 12-bobi, ya’ni mehnat shartnomasi va uni tuzish tartibi bo‘yicha belgilangan normalarga kengroq to‘xtalmoqchimiz. Kodeksning 12-bobi 103-180-moddlarni o‘z ichiga olib, ushbu moddalarda mehnat shartnomasini tuzishdan tortib bekor qilishgacha bo‘lgan har bir jarayonga oid qonun-qoidalar mukammal belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 102-moddasida mehnat shartnomasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi taraflarning o‘zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo‘lib, unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini ko‘zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat qoidalariga rioya etish majburiyatini, ish beruvchi esa xodimga shartlashilgan mehnat vazifikasi bo‘yicha ish berish, xodimga ish haqini o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lash, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va ushbu kelishuvda nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini ta’minalash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi”.<sup>6</sup> Demak, mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchining majburiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi mehnat jarayonining muhim hujjatidir. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turganidek, xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari hisoblanadi.

Ishga qabul qilishda talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati MKning 124-moddasida ko‘rsatilgan. Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni pasportni yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatni yoxud identifikatsiyalovchi ID-kartani, o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslar esa tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani oxirgi ish joyi bo‘yicha tasdiqlangan qog‘oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko‘chirmani, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno. O‘rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasining o‘rniga asosiy ish joyidan olingan belgilangan namunadagi ma’lumotnomani; harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar uchun tegishinchcha harbiy guvohnomani yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani; oliy yoki o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’lim tashkilotini tamomlaganligi to‘g‘risidagi diplomni, qaysi ishni bajarish uchun faqat maxsus ma’lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxslar qo‘yilishi mumkin bo‘lsa, o‘sha ishga kirish chog‘ida ushbu ishni bajarish huquqiga doir guvohnomani (sertifikatni) yoxud boshqa tegishli hujjatni: soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini yoxud boshqa tegishli hujjatni taqdim etadi.

Bilamizki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada ochiqlik va oshkoraliq prinsiplariga amal qilinmoqda. Bu esa fuqarolarning davlatga, hukumatga bo‘lgan ishonchini yana-da oshirmoqda. Bu jarayon mehnat munosabatlarini ham chetlab o‘tmadi, albatta. Shuning uchun ham yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 109-moddasiga asosan Mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish, shuningdek unga o‘zgartish va qo‘srimchalar

<sup>6</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son

kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksida ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart.

Mazkur kodeksda mehnat shartnomasining tuzilish muddatlari haqida ham aniq normalar belgilab qo‘yilgan, ya’ni xodim va ish beruvchi o‘rtasida tuziladigan mehnat shartnomalari nomuayyan hamda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muayyan muddatga (muddatli mehnat shartnomasi) tuzilishi mumkin. **Muddatli mehnat shartnomasini tuzish** shartlari ham o‘zgardi — muddatli mehnat shartnomasini tuzish mumkin bo‘lgan yoki hatto zarur bo‘lgan holatlar ro‘yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Cheklangan muddat uchun pudratchi yollash imkoniyati ish beruvchilarni jalb qiladi. Shartnomada ko‘rsatilgan muddat tugaganda, ular odamni ishdan bo‘shatish uchun sabablar keltirishi shart emas. Misol uchun, muddatli mehnat shartnomasi mikrofirmalar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarda kunduzgi ta’limda o‘qiydigan talabalar bilan tuzilishi mumkin. Bo‘lajak hamkorlikning ahamiyati va uning shartlari ham hisobga olinadi.

Yangi Mehnat kodeksi masofadan imzolangan mehnat shartnomasini tan oladi va ish beruvchidan ishni tashkil etish — jadval formati, masofaviy ishchi bilan o‘zaro aloqa qilish vaqtini belgilashi talab etiladi. Xodimning ish vaqtini qondirishi uchun barcha vazifalarni hisoblash kerak bo‘ladi. Yildan yilga bizga tanish mehnat daftarchasi o‘ziga xos yodgorlikka aylanadi. Misol uchun, G‘arb mamlakatlarida odamlar shaxsiy ijtimoiy xavfsizlik raqamiga ega, bu bizning PINFL (JSHSHIR) bilan bir xil. Barcha o‘tkazmalar — daromad, imtiyozlar va boshqalar maxsus raqamga biriktiriladi. Nafaqaga chiqqaningizda, odam qaysi kompaniyalarda ishlaganligini, qancha ish tajribasiga ega ekanligini ko‘rsatish va isbotlash shart emas — bularning barchasi ahamiyatsiz bo‘lib qoladi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksini varaqlar ekanmiz, unda qarindoshlarning davlat tashkilotida birga xizmat qilishini cheklash bilan bog‘liq moddaga ko‘zimiz tushadi. Ya’ni o‘zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslarning (ota-onas, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo‘ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo‘lishiga bog‘liq bo‘lsa ta’qiqlanadi (121-modda)<sup>7</sup>. Ushbu ta’qiq shuni anglatadiki, ota-onalar, er-xotinlar, bolalar, aka-ukalar, opa-singillar, davlat tashkiloti rahbarining farzandlari bevosita bo‘ysunishidan qat’i nazar davlat tashkilotida ishlay olmaydilar. Davlat tashkilotlarning rahbarlari ular boshchilik qilayotgan tashkilotlarda yuqorida ko‘rsatilgan ta’qiqning bajarilishini ta’minlashi shart. Agar davlat tashkilot rahbari ushbu taqiqni bajarmasa u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

Ma’lumki, ushbu norma 2022-yilning 8-avgust kuni prezidentimiz tomonidan imzolangan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunning

<sup>7</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son

13-moddasida ham belgilangan. Ishonamizki, Mehnat kodeksiga xalqaro tajribadan o‘tgan ushbu moddaning kiritilishi har qanday korrupsion va tanish-bilishchilik orqasidan kelib chiqadigan salbiy holatlarning oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi qonun xodimlarning mehnat huquqlari sudlar va boshqa organlar tomonidan ishonchli ta’minlanishiga, ish beruvchi va xodim o‘rtasida zamon talabidan kelib chiqib paydo bo‘ladigan turli mehnat munosabatlarining qonun yo‘li bilan tartibga solinishiga, ish samaradorligining oshishi va shu orqali davlatimiz iqtisodiyoti yuksalishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son
3. Mehnat huquqi. Tursunov Y., Usmanova M. 2006.
4. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 03/22/798/0972-son
5. Mehnat huquqi. Darslik. – T.:TDYU nashriyoti, 2021
6. Кенжабаев, Ш. А. (1998). История обучения иностранному языку в общеобразовательной школе южных областей Узбекистана (Сурхандарьинская и Кашкардарьинская области) и пути его совершенствования на современном этапе.
7. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO ‘NALISHIDAGI TALABALARING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O ‘QITISH TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(2), 77-81.
8. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO ‘NALISHIDAGI TALABALARING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O ‘QITISHNING TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI. Journal of new century innovations, 46(3), 119-126.
9. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). SCIENTIFIC-THEORETICAL PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE VETERINARY DIRECTION. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(2), 22-28.
10. Кенжабаев, Ш. А. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 103-113.
11. Кенжабоев, Ш. А. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 17, 177-183.

12. Nishonov, M., & Kenjaboev, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF CHEMICAL EXPERIMENTS IN THE STUDY OF THE TOPIC "PATTERNS OF CHEMICAL REACTIONS". *Science and innovation*, 2(B5), 53-56.
13. Kenjaboev, S. (2023). FEATURES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B7), 166-170.
14. Kenjaboev, S. (2023). THE PROBLEM AND SOLUTION OF USING ENGLISH LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B7), 159-165.
15. Аблаева, Н. К., & Зулунова, К. К. (2024). ТЕМА "МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА" В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПУШКИНА ("ПОВЕСТИ БЕЛКИНА"). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'MUN SCIENCE", 2(1).
16. Аблаева, Н. К. (2023). МНОГООБРАЗИЕ ТЕМ В ПОЭЗИИ БАБУРА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 566-569.
17. Аблаева, Н. К., & Атаназарова, Х. М. (2024). ПЕЙЗАЖНАЯ ЛИРИКА ФЕТА. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(4), 188-193.
18. Аблаева, Н. К., & Хасанова, Ш. К. (2024). АФОРИЗМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГРИБОЕДОВА ("ГОРЕ ОТ УМА"). YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(4), 264-268.
19. Аблаева, Н. К. (2024). «НАРОДНАЯ ДРАМА» АН ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА» В КОНТЕКСТЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ И ОБРЯДОВЫХ ТРАДИЦИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 24-29.
20. Аблаева, Н. К., & Сапарбаева, С. Б. (2024). ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ"-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ РОМАН РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. *Miasto Przyszłości*, 46, 693-697.
21. Аблаева, Н. К. (2023). «ТЕНЬ МОЯ НА СТЕНАХ ТВОИХ». (Восточные мотивы в творчестве Анны Ахматовой). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'MUN SCIENCE", 1(1).